

ISH BOSHLASHDAN OLDIN



Ish beruvchingiz haqida ma'lumot qilidirib ko'ring

- Ishga yollangan bo'lsangiz, ish beruvchingiz oyliklarni o'z vaqtida berishi borasida qanchalik o'z va'dasida turishini bilish juda muhim.
- Ish beruvchingiz haqidagi ma'lumotni ijtimoiy tarmoqlarda va ochiq ma'lumotlar bazasida tekshirib ko'ring.
- Oyliklarning to'lanmasligi, qiyin ish sharoiti, ishchining qaram holatidan xudbinlarcha foydalanish – odam savdosidan dalolat beradi.

Ish beruvchingizdan yozma shakldagi ish shartnomasini talab qiling!

- Ish shartnomasida lavozimga oid majburiyatlar, ish haqqi miqdori, ish va dam olish soatlari, ish joyi, yillik ta'til davomiyligi, ishlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Ishga olishdan oldin, ish beruvchi ishchini yo'riqnoma (xavfsizlik choralari borasida yozma yo'riqnoma) va ishga tayyorlov kursi (malakali ishchi boshchiligida amaliy tayyorlov) bilan ta'minlashi lozim.

- Ishga tayyorlov kursi ishchiga tushunarli tilda olib borilishi kerak.
- Ishga tayyorlash davomida, ish beruvchi ish o'rnidagi va jamiki ishlab chiqarishda ehtimoli mavjud barcha xavflar, ularni qanday kamaytirish va sog'liqqa zararining oldini olish borasida tushuncha berishi kerak.

Ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis tomonidan ishchini tibbiy ko'rikdan o'tkazishi kerak.

Ish beruvchi ishchini, shaxsiy himoya vositalari (misol uchun, shovqinli muhitda ishlovchilar uchun, eshitish organlarini himoya qilish vositalari) va chang, iflos yoki sovuqda ishlovchilarni maxsus ish kiyimi bilan ta'minlashi shart.

Ishchilar, ehtiyoj paydo bo'lganda, kim ularga birinchi yordam ko'rsata olishini va ishga oid savol yoki muammolar paydo bo'lganida, kimga murojaat qilishlari kerakligini bilishlari shart.

ISH OYLIGI



- Ishga oid oylik, respublika hukumati tomonidan belgilangan, eng kam ish haqqi miqdoridan kam bo'lmasligi zarur. Ushbu holat, Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan davlatdan, ushbu davlatda eng kam ish haqqi Estoniyalikiga nisbatan balandroq bo'lmagan holatlarda, Estoniyaga ish safariga yuborilgan ishchilarga ham taalluqli. Agar ishchi Yevropa Ittifoqi hududidan bo'lmay (misol uchun, vizaga ko'ra, vizasiz kirish, yashash uchun ruxsatnoma asosida), Estoniyalik ish beruvchi bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzsa, va uning Estoniyaga tashrifi ishga asoslangan bo'lsa, bu holat o'z vaqtida politsiya va chegara departamentida ro'yxatga olingan bo'lishi kerak, va **ish oyligi, Estoniyadagi o'rtacha ish haqqidan kam bo'lmasligi shart.**
- Oylik ish haqqi, oyda muqim bir sanada to'lanishi kerak (misol uchun, har oyning 5-sanasida).



- Estoniyada to'liq ish kuni, **haftasiga 40 soatni** tashkil qiladi. Bu – ish soati davomiyligi, kuniga 8 soat ekanligini bildiradi.
- Ma'lum grafik asosida ishlasangiz, ish soatlari ko'proqni tashkil qilishi mumkin. Oylik taqvimga ko'ra, ish soatlari 152 soatdan 184 soatgacha vaqtni tashkil qilishi mumkin.
- **Agar oldindan kelishilgan soatdan ko'proq ishlayotgan bo'lsangiz, bu - ustama ish soati hisoblanadi.** Ustama ish soatlari yozma ko'rinishda kelishilgan bo'lishi shart (misol uchun, yozishmalar yoki o'zaro xabarlarida). Ustama ish soatlari, to'lanadigan dam olish ko'rinishida yoki, odatiy ish soatlariga beriladigan to'lovning 1,5 barobari ko'rinishida to'lanadi.
- **Bir ish navbatida ustama ish soati bilan birga, jami ish soatlari 13 soatdan ziyod bo'lishi mumkin emas.** Bir ish kunidan ikkinchi ish kuni orasida ishchi 11 soat dam olishi kerak.
- Yetti kunlik ish haftasida, ishchi **36 soat** (grafik asosida ishlovchilar) yoki, **48 soat** (dushanbadan jumagacha 8 soatdan ishlovchilar) **dam olishi** lozim. 11 soatlik dam yuqorida nomga olingan 36 yoki 48 soat ichiga kirmaydi, u bu soatlardan oldin kelishi shart. Bu - haftasiga ketma ket 6 kundan ziyod ishlashga ruxsat berilmasligini bildiradi.
- Ishchi kamida **olti soat** muddat ishlasa, ish beruvchi unga **30 daqiqalik tanaffus** (tushlik tanaffusi) berishga majbur. Bundan tashqari, ish og'ir yukni ko'tarish kabi, jismoniy zo'riqishni talab qilsa, ishchi ish soatlari davomida to'lanadigan tanaffusga ham haqqi bo'ladi. Tanaffus, aqliy zo'riqishni talab qilgan ishlarda ham berilishi shart.
- Tanaffus uchun, suvanchiqli stullar bilan jihozlangan **dam olish xonasi** taqdim etilishi kerak.
- Ishchilar yiliga **28 kundan kam bo'lmagan, to'lanadigan ta'tilga** chiqish huquqiga egalar.

ISH SHARTNOMASINI BEKOR QILISH



- Agar ishchi ishdan bo'shashni xohlasa, buni u ish beruvchisiga 30 kundan kam bo'lmagan muddatda yozma ko'rinishda xabar berishi kerak. Lekin ikki tomon kelushivga ko'ra, ish shartnomasi istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.
- Agar ish beruvchi ishdan bo'shatmoqchi bo'lsa, buning sabablarini yozma ko'rinishda berishi lozim.
- Ishchi, istalgan vaqtda, mehnat nizolari bo'yicha komissiyasi oldida, ishdan bo'shatish qaroriga o'z e'tirozini bildirishi mumkin. Ish shartnomasi tugatilganda, ish beruvchi ishchi oyligining qoldig'ini va foydalanmagan ta'tili pulini to'lab berishi shart.

Kerakli aloqa kontaktlari:

- Mehnat inspeksiyasi: telefon raqami: 640-6000, elektron pochta: jurist@ti.ee
- Politsiya mahkamasi va chegara nazorati: telefon raqami: 612-3500, elektron pochta: migrationadvice@politsei.ee
- Soliq va bojxona departamenti: telefon raqami: 880-0811, elektron pochta: emta@emta.ee